



№4/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI**  
**Ilmiy xabarnomasi**

## GLOBAL TA'LIM MIGRATSIYASI: IJTIMOY-FALSAFIY TAHLIL VA STRATEGIK RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Fozilov Botirjon Zakirovich**

*Andijon davlat chet tillari instituti*

### **Annotatsiya.**

*Ushbu maqolada globallashuv sharoitida ta'lim migratsiyasi jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda migratsiya oqimlarining shaxs kamoloti, ijtimoiy adolat va milliy o'zlikka ta'siri Andijon viloyati misolida ko'rib chiqiladi. Maqolada "aqlarning oqimi" fenomenini "aqlarning aylanishi" modeliga transformatsiya qilish mexanizmlarini va intellektual xavfsizlikni ta'minlashning strategik yo'nalishlarini asoslab berilgan.*

### **Kalit so'zlar:**

*ta'lim migratsiyasi, globallashuv, ijtimoiy-falsafiy unifikatsiya, "aqlarning oqimi", intellektual kapital, ijtimoiy adolat, Andijon viloyati, reintegratsiya.*

### **Аннотация.**

*В данной статье анализируется социально-философская сущность процессов образовательной миграции в условиях глобализации. В исследовании на примере Андижанской области рассматривается влияние миграционных потоков на развитие личности, социальную справедливость и национальную идентичность. Автором обоснованы механизмы трансформации феномена «утечки мозгов» в модель «циркуляции мозгов» и стратегические направления обеспечения интеллектуальной безопасности.*

### **Ключевые слова:**

*образовательная миграция, глобализация, социально-философская унификация, «утечка мозгов», интеллектуальный капитал, социальная справедливость, Андижанская область, реинтеграция.*

### **Abstract.**

*This article analyzes the socio-philosophical essence of educational migration processes in the context of globalization. Using the example of the Andijan region, the study examines the impact of migration flows on personal development, social justice, and national identity. The author substantiates the mechanisms for transforming the "brain drain" phenomenon into a "brain circulation" model and outlines strategic directions for ensuring intellectual security.*

### **Keywords:**

*educational migration, globalization, socio-philosophical unification, brain drain, intellectual capital, social justice, Andijan region, reintegration.*

**KIRISH.** XXI asrning birinchi choragi insoniyat tarixida "global harakatchanlik davri" sifatida muhrlanmoqda. Globallashuv jarayonlari nafaqat iqtisodiy bozorlarni, balki intellektual va ma'naviy makonlarni ham yagona tizimga birlashtirdi. Bu tizimning markazida esa ta'lim migratsiyasi — shaxsning o'z bilimi, malakasi va ijtimoiy maqomini oshirish maqsadida davlatlararo harakatlanishi yotadi. Bugungi kunda ta'lim migratsiyasi shunchaki talabalarning bir mamlakatdan ikkinchisiga borishi emas, balki jamiyatning ijtimoiy strukturasi, milliy mentaliteti va intellektual xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida oliy ta'lim tizimini transformatsiya qilish, yoshlarni zamonaviy ilm-fan cho'qqilariga olib chiqish ustuvor vazifa etib belgilangan [1]. O'zbekiston yoshlarining xalqaro ta'lim maydoniga faol integratsiyalashuvi, bir tomondan, mamlakatning kelajakdagi kadrlar salohiyatini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, "aqlarning

oqimi” (brain drain) va milliy o’zlikni saqlash kabi qator konseptual muammolarni keltirib chiqarmoqda [2]. Ayniqsa, Andijon viloyati kabi demografik zich va mehnat resurslari yuqori bo’lgan hududlarda ta’lim migratsiyasining ijtimoiy-falsafiy determinantlarini o’rganish, migratsiya oqimlarini mamlakat barqaror rivojlanishiga yo’naltirish ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarbdir.

**Muammoning o’rganilganlik darajasi.** Ta’lim migratsiyasi masalasi xalqaro va milliy darajada turli rakurslarda tadqiq etilgan. Iqtisodiy nuqtayi nazardan “inson kapitali” nazariyasi (G.Bekker, T.Shuls) [3], sotsiologik jihatdan esa “itaruvchi va tortuvchi omillar” (push and pull factors) nazariyasi (E.Li) asosiy o’rin tutadi [4]. Biroq, ushbu jarayonning ijtimoiy-falsafiy jihatlari, xususan, globallashuv sharoitida migratsiyaning ijtimoiy adolat, mas’uliyat va milliy o’zlik bilan bog’liqligi falsafiy antropologiya va ijtimoiy falsafa doirasida yanada chuqurroq tadqiq etishni talab qiladi.

**Tadqiqotning obykti va predmeti.** Tadqiqotning obykti sifatida globallashuv sharoitida shakllanayotgan xalqaro ta’lim migratsiyasi jarayonlari olingan. Tadqiqotning predmetini esa ta’lim migratsiyasining ijtimoiy-falsafiy qonuniyatlari, uning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi o’rni hamda Yangi O’zbekistondagi migratsiya jarayonlarining o’ziga xos xususiyatlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Maqolaning asosiy maqsadi — ta’lim migratsiyasini ijtimoiy-falsafiy birlashish (unification) kontekstida tahlil qilish hamda ushbu jarayonning milliy yuksalishdagi dialektik xususiyatlarini ochib berishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. Ta’lim migratsiyasining evolyutsion bosqichlarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish;
2. “Aqllarning oqimi” (brain drain) fenomenidan “aqlarning aylanishi” (brain circulation) modeliga o’tishning falsafiy asoslarini o’rganish;
3. Andijon viloyati misolida hududiy migratsiya jarayonlarining ijtimoiy adolat va mas’uliyat prinsiplari bilan bog’liqligini asoslash;
4. Global ta’lim makonida milliy manfaatlarini himoya qilishning ijtimoiy-falsafiy mexanizmlarini ishlab chiqish.

**Ilmiy yangiligi.** Tadqiqotda ta’lim migratsiyasi shunchaki “ko’chish” emas, balki shaxsning ijtimoiy borliqdagi o’rnini qayta belgilovchi **eksistensial tanlov** sifatida talqin etiladi. Shuningdek, globallashuv sharoitida migratsiyaning “unifikatsiyalashuv” (yagona ta’lim standartlariga birlashish) va “differensiallashuv” (milliy o’zlikni anglash) dialektikasi ochib beriladi.

**Tadqiqotning metodologik asosi.** Maqolada dialektikaning um umiylik, xususiylik va yagonalik tamoyillari, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil hamda ijtimoiy determinizm metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, taraqqiyot strategiyalari va xalqaro konvensiyalar me’yoriy-huquqiy baza sifatida xizmat qildi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ta’lim migratsiyasi fenomenini ilmiy anglash insoniyatning hududiy ko’chishi bilan bog’liq fundamental nazariyalarga borib taqaladi. Mazkur jarayonning

klassik nazariy asoslarini E.G. Ravenshteyn o'zining "Migratsiya qonunlari" (The Laws of Migration) asarida tizimlashtirgan [5]. U migratsiyani masofa, bosqichma-bosqichlik va iqtisodiy motivlar bilan bog'lab tushuntiradi. Biroq zamonaviy ta'lim migratsiyasi Ravenshteyn davridagi "ishchi kuchi" migratsiyasidan farqli o'laroq, intellektual resurslarning transformatsiyasiga tayanadi. Keyinchalik, E. Li tomonidan ilgari surilgan "Push-Pull" (Itarish va Tortish) nazariyasi ta'lim migratsiyasini tahlil qilishda asosiy vositaga aylandi [4]. Ushbu nazariyaga ko'ra, donor mamlakatdagi past ta'lim sifati, ijtimoiy adolatsizlik yoki ilmiy infratuzilmaning yo'qligi "itaruvchi", qabul qiluvchi mamlakatdagi yuqori texnologiyalar, nufuzli diplom va ijtimoiy kafolatlar "tortuvchi" omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, bu omillar shaxsning "yaxshi hayot" va "mukammal ilm" haqidagi tasavvurlari, ya'ni uning qadriyatlar iyerarxiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

XXI asr tadqiqotchilari, xususan, B. Lousell va X. de Xaas asarlarida migratsiya shunchaki mexanik harakat emas, balki "agentlik" (agency) — insonning o'z hayotini o'zgartirishga bo'lgan ongli intilishi sifatida talqin etiladi. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston sharoitida ta'lim migratsiyasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari mahalliy tadqiqotchilar tomonidan "ijtimoiy adolat", "shaxs mas'uliyati" va "milliy taraqqiyot" prizmasida o'rganilmoqda. Bugungi kunda tadqiqotlar diqqat markazi "aqlarning oqimi" (brain drain) degan bir tomonlama qarashdan, bilim va tajribaning o'zaro almashinuvi — "aqlarning aylanishi" (brain circulation) konsepsiyasiga ko'chmoqda. Bu esa migratsiyani ijtimoiy-falsafiy unifikatsiya (birlashish) va globallashuvning ijobiy hosilasi sifatida ko'rish imkonini beradi. Shuningdek, ijtimoiy falsafada ta'lim migratsiyasi "madaniy kapital" (P. Burdyo) tushunchasi orqali ham tahlil qilinadi [6]. Talaba xorijga nafaqat bilim olish, balki yangi ijtimoiy aloqalar, dunyoqarash va madaniy kodlarni o'zlashtirish uchun boradi. Bu jarayon milliy o'zlik va global dunyoqarash o'rtasidagi dialektik kurashni yuzaga keltirishi bilan tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada qo'llanilgan metodologik apparat ta'lim migratsiyasining ko'p qirrali tabiatini hisobga olgan holda shakllantirildi. Tadqiqotning fundamental asosi sifatida dialektik yondashuv tanlandi. Bu metod migratsiyadagi qarama-qarshiliklarni — individuallik va ijtimoiylik, milliy manfaatlarni saqlash va global integratsiya, erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi bog'liqlikni dialektik birlikda ko'rishga xizmat qildi.

**Tadqiqotda quyidagi maxsus metodlardan foydalanildi:**

• **Tizimli tahlil:** Ta'lim migratsiyasi yaxlit bir tizim sifatida ko'rib chiqilib, uning tarkibiy qismlari (motivatsiya, jarayon, natija va oqibat) o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik o'rganildi. Bu usul migratsiyani nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-siyosiy va falsafiy omillar majmuasi sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

• **Qiyosiy-mantiqiy umumlashtirish:** O'zbekiston, xususan, Andijon viloyati yoshlarining migratsion kayfiyati xalqaro tendensiyalar bilan qiyoslandi. Globallashuv sharoitida ta'lim xizmatlari bozorining transformatsiyasi mantiqiy xulosalar orqali asoslandi.

• **Ijtimoiy prognozlash:** Mavjud migratsiya oqimlari va davlat ta'lim siyosatining tahlili asosida, kelajakda intellektual salohiyatning harakatlanish yo'nalishlari va uning jamiyat barqarorligiga ta'siri bo'yicha ilmiy taxminlar ishlab chiqildi.

• **Aksiologik yondashuv:** Ta'lim migratsiyasi jarayonida shaxsning qadriyatlar tizimi o'zgarishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarining o'zaro nisbati falsafiy tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar majmuasi ta'lim migratsiyasini faqat statistik raqamlar darajasida emas, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy hodisa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning yangi shakli sifatida ochib berishga xizmat qiladi. Tadqiqotning metodologik asosi migratsiya jarayonlarini "unifikatsiya" va "identifikatsiya" (o'zlikni anglash) o'rtasidagi muvozanatni topishga yo'naltirilgan.

**TADQIQOT NATIJALARI:** Tadqiqot jarayonida ta'lim migratsiyasining zamonaviy tendensiyalari o'rganilganda, ushbu jarayonning O'zbekiston ijtimoiy hayotidagi o'rni va dinamikasi bo'yicha qator muhim natijalar qo'lga kiritildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim migratsiyasi shunchaki demografik harakat emas, balki jamiyatning intellektual va ijtimoiy strukturaviy transformatsiyasini belgilovchi murakkab jarayondir.

**Migratsiya dinamikasi va statistik tahlil.** So'nggi besh yillik (2020-2025) ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida xalqaro ta'lim migratsiyasi misli ko'rilmagan darajada faollashgan. Statistik ko'rsatkichlarga ko'ra, xorijiy davlatlarda tahsil olayotgan o'zbekistonlik talabalar soni o'rtacha 35% ga oshgan [7]. Ushbu o'sish sur'ati quyidagi omillar bilan izohlanadi:

1. Milliy ta'lim tizimidagi kvotalarning cheklanganligi va raqobatning yuqoriligi;
2. Xorijiy davlatlar (Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Germaniya va AQSH) tomonidan taqdim etilayotgan grantlar hajmining kengayishi;
3. Ota-onalar va yoshlar ongida "xorijiy diplom — muvaffaqiyat garovi" degan ijtimoiy-psixologik ustanovkaning shakllanganligi.

Andijon viloyati kesimida olib borilgan empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, hududiy migratsiya oqimlarida "qo'shni davlatlar" (Qirg'iziston, Qozog'iston) va "uzoq xorij" (Janubiy Koreya, Germaniya) yo'nalishlari o'rtasida o'ziga xos muvozanat mavjud. Bu esa hududning demografik zichligi va yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga intilishi bilan bog'liq.

**Ta'lim migratsiyasining dialektik xususiyatlari.** Tadqiqot natijasida ta'lim migratsiyasining ijobiy va salbiy tomonlari o'rtasidagi dialektik bog'liqlik aniqlandi:

• **Ijobiy dinamika:** Xorijda ta'lim olish jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilimlarga, balki "soft skills" (yumshoq ko'nikmalar), texnologik transfer va global tarmoqqa ulanish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu jarayon madaniyatlararo muloqotni kuchaytirib, yoshlarda tolerantlik va kosmopolit dunyoqarashni shakllantiradi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, xorijda o'qib qaytgan mutaxassislarining 65% dan ortig'i milliy iqtisodiyotga innovatsion yondashuvlarni olib kirmoqda.

• **Salbiy tendensiyalar:** Eng katta xavf — yuqori intellektual salohiyatga ega yoshlarning qabul qiluvchi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy muhitiga butunlay singib ketishi va qaytib kelmasligidir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xorijda IT, tibbiyot va muhandislik yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalarning qariyb 40% i kelajakdagi faoliyatini chet elda davom ettirishni

rejalashtirmoqda. Bu esa mamlakatning strategik kadrlar zaxirasiga jiddiy zarba berishi mumkin.

**Transformatsion jarayonlar: Oila va Jamiyat.** Ta'lim migratsiyasi nafaqat talaba shaxsi, balki uning oilasi uchun ham transformatsion hodisadir. Empirik tahlillar shuni ko'rsatdiki, oila a'zosining xorijda o'qishi oilaning ijtimoiy statusini oshiradi (social prestige), biroq ayni paytda "masofaviy munosabatlar" tufayli oilaviy qadriyatlar tizimida o'zgarishlar yaratadi. Jamiyat ijtimoiy strukturasi nuqtayi nazaridan, ta'lim migratsiyasi "yangi intellektual qatlam"ni shakllantirmoqda. Bu qatlam an'anaviy qarashlar va zamonaviy global tendensiyalar o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi. Biroq, bu jarayon ijtimoiy institutlar (Oila, Mahalla, Ta'lim muassasalari) zimmasiga kadrlarni nafaqat "eksport" qilish, balki ularni vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat ruhida saqlab qolish mexanizmlarini yaratish vazifasini yuklaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim migratsiyasini boshqarish uchun faqat ma'muriy choralar yetarli emas. Bu yerda ijtimoiy-falsafiy unifikatsiya, ya'ni milliy manfaatlarini global imkoniyatlar bilan uyg'unlashtiruvchi yangi strategiya zarur. Olingan ma'lumotlar migratsiyani to'xtatish emas, balki uni "aqlarning aylanishi" (brain circulation) bosqichiga o'tkazish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalarining ijtimoiy-falsafiy talqini shuni ko'rsatadiki, ta'lim migratsiyasi shunchaki hududiy ko'chish emas, balki global intellektual makonda ijtimoiy birlashish (unification) jarayonining ko'rinishidir. Bu jarayonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini to'qnash keladi, bu esa o'z navbatida yangi falsafiy yondashuvlarni talab etadi.

**Ijtimoiy adolat va imkoniyatlar tengligi dialektikasi.** Muhokamaning markaziy nuqtasi — ijtimoiy adolat prinsipidir. Ta'lim migratsiyasi motivatsiyasi ko'p hollarda shaxsning o'z potentsialini ro'yobga chiqarish uchun "eng adolatli va sifatli" muhitni izlashi bilan bog'liq. Agarda milliy ta'lim tizimi intellektual ehtiyojlarni qondira olmasa, migratsiya ijtimoiy adolatni tiklashning individual mexanizmiga aylanadi. Andijon viloyati misolida kuzatilayotgan yuqori migratsion faollik hududdagi yoshlarning global mehnat va ta'lim bozorida o'z o'rnini topishga bo'lgan ijtimoiy intilishining natijasidir. Bu borada davlatning vazifasi — ta'lim olish imkoniyatlarini unifikatsiyalash, ya'ni chekka hududlardagi yoshlar uchun ham xalqaro standartlarga mos ta'lim muhitini yaratish orqali migratsiyani 'majburiy' tanlovdan "ixtiyoriy" imkoniyatga aylantirishdir.

**Intellektual xavfsizlik: "Aqlar oqimi"dan "Aqlar aylanishi"ga.** Muhokama qilinayotgan muhim g'oyalardan biri — mamlakatning intellektual xavfsizligini ta'minlashdir. Globallashuv sharoitida yuqori malakali kadrlarning chiqib ketishi (brain drain) muqarrar jarayon bo'lib ko'rinsa-da, uni ijtimoiy-falsafiy jihatdan qayta shakllantirish mumkin.

• **Strategik yechim:** Milliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish orqali "brain circulation" (aqlarning aylanishi) modelini joriy etish lozim. Bu shuni anglatadiki, xorijga ketgan talaba u yerda olgan innovatsion bilimini "qadriyat transferi" sifatida mamlakatga qaytarishi kerak. Bu faqat iqtisodiy emas, balki ma'naviy-axloqiy mas'uliyat masalasidir.

**Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash muammosi.** Ta'lim migratsiyasining ijtimoiy-falsafiy xavfi — shaxsning o'z milliy identikligini yo'qotishi va "madaniy

assimilyatsiya”ga uchrashidir. Xorijda uzoq muddat bo’lgan yoshlarda vatanparvarlik hissi va milliy qadriyatlarga nisbatan skeptik qarashlar shakllanishi mumkin.

• **Ijtimoiy mexanizm:** Xorijdagi yoshlar bilan tizimli ishlovchi “Raqamli vatanparvarlik” va “Madaniy ko’prik” dasturlarini ishlab chiqish zarur. Muhokamada ilgari surilayotgan asosiy g’oya — talaba qayerda o’qishidan qat’i nazar, o’zini milliy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi sifatida his etishi kerak. Bu esa ta’lim migratsiyasini “begonalashuv” emas, balki “milliy yuksalishning xalqaro bosqichi” sifatida talqin qilish imkonini beradi.

**Ijtimoiy mas’uliyat va investitsiya qaytimi.** Davlat tomonidan ajratilgan grantlar va kvotalar jamiyatning kelajagi uchun tikilgan ijtimoiy investitsiyadir. Muhokama qismida ushbu investitsiyaning jamiyat rivoji uchun qaytimi masalasi axloqiy va huquqiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ta’lim oluvchining zimmasidagi ijtimoiy mas’uliyat — bu nafaqat diplom olish, balki olingan bilimni jamiyatning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yo’naltirishdir. Andijon viloyati kabi agrar va sanoatlashgan hududlar uchun aynan zamonaviy texnologik bilimga ega, ammo milliy qadriyatlarga sodiq mutaxassislar suv va havodek zarur.

Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, ta’lim migratsiyasini ijtimoiy-falsafiy birlashtirish (unification) — bu global ta’lim standartlarini milliy manfaatlariga moslashtirish demakdir. Yechim sifatida milliy ta’lim tizimini xalqaro akkreditatsiyadan o’tkazishni jadallashtirish, xorijiy bitiruvchilar uchun “Intellektual xab”lar yaratish va migratsiyani boshqarishda aksiologik (qadriyatli) yondashuvni qo’llash taklif etiladi. Shundagina migratsiya yo’qotish emas, balki millatning intellektual kapitalini boyituvchi qudratli manba bo’lib xizmat qiladi.

**XULOSA VA AMALIY TAVSIYALAR.** Olib borilgan ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar va migratsion jarayonlar tahlili shuni ko’rsatadiki, ta’lim migratsiyasi Yangi O’zbekiston ijtimoiy taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Mazkur jarayon nafaqat kadrlar harakatini, balki jamiyatning intellektual salohiyati, qadriyatlar tizimi va global integratsiyalashuv darajasini ham belgilab bermoqda. Tadqiqot yakunida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

**Obyektivlik va muqarrarlik.** Ta’lim migratsiyasi — globallashtirish sharoitida to’xtatib bo’lmaydigan, obyektiv dialektik jarayondir. Uni ma’muriy taqiqlar bilan cheklash emas, balki shaxs erkinligi va ijtimoiy mas’uliyat muvozanatini saqlagan holda oqilona boshqarish lozim. Migratsiya “aqlarning oqimi” (brain drain) darajasidan “aqlarning aylanishi” (brain circulation) bosqichiga o’tkazilishi mamlakatning intellektual xavfsizligini ta’minlashning bosh omilidir.

**Ijtimoiy-falsafiy unifikatsiya.** Ta’lim makonlarining birlashishi (unification) sharoitida milliy identifiklikni saqlab qolish masalasi dolzarb bo’lib qolmoqda. Xorijda ta’lim olayotgan yoshlar nafaqat texnologik bilimlarni o’zlashtirishi, balki milliy manfaatlar va umuminsoniy qadriyatlar o’rtasidagi uyg’unlikni anglovchi “madaniy elchi”lar sifatida shakllanishi zarur.

**Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:**

• **“Re-integratsiya” davlat dasturini joriy etish:** Xorijiy nufuzli OTM bitiruvchilari uchun O’zbekistonda maxsus “Karyera traektoriya”si ishlab chiqilishi lozim. Bu dastur faqat ish bilan ta’minlash emas, balki bitiruvchilarning innovatsion loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish, ularga ilmiy va tadbirkorlik “hub”larida imtiyozli joylar ajratishni ko’zda tutishi kerak.

• **Mintaqaviy monitoring va prognozlash markazlarini tashkil etish:** Andijon viloyati misolida har bir hududning o'ziga xos demografik va iqtisodiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ta'lim migratsiyasi monitoringi yo'lga qo'yilishi kerak. Bu markazlar qaysi yo'nalishdagi kadrlarga ehtiyoj yuqoriligini tahlil qilib, yoshlarni maqsadli ta'lim migratsiyasiga (targeted migration) yo'naltirishi lozim.

• **“Raqamli diasporalar” bilan ishlash mexanizmi:** Xorijda tahsil olayotgan va ishlayotgan vatandoshlar bilan doimiy onlayn muloqot maydonchalarini yaratish. Ularni masofaviy tarzda milliy ta'lim jarayonlariga (ma'ruzalar, master-klasslar o'tishga) jalb qilish orqali “virtual qaytish” fenomenini shakllantirish.

• **Aksiologik tayyorgarlik kurslari:** Yoshlarni xorijga yuborishdan oldin ularda milliy o'zlik, ijtimoiy mas'uliyat va vatanga daxldorlik hissini mustahkamlovchi ijtimoiy-falsafiy tayyorgarlik kurslarini tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim migratsiyasini oqilona boshqarish — O'zbekistonning jahon hamjamiyatida intellektual salohiyatli, raqobatbardosh va barqaror rivojlanayotgan davlat sifatida namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Mazkur jarayonni ijtimoiy-falsafiy birlashtirish milliy yuksalishning strategik zaxirasini yaratish demakdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60-son. 28.01.2022-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 412 p
4. Lee E. S. A Theory of Migration // Demography. – 1966. – Vol. 3. – No. 1. – pp. 47-57.
5. Ravenshtein E. G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. – 1885. – Vol. 48. – No. 2. – pp. 167-235.
6. Bourdieu P. The Forms of Capital. In: Richardson J.G. (Ed.) Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. – New York: Greenwood Press, 1986. – pp. 241-258.
7. IOM (International Organization for Migration). World Migration Report 2024. – Geneva: IOM, 2024. – 410 p.

**Эгамназарова З.К.**

*Совершенствование коммуникативной компетенции на занятиях по русскому языку в вузе (в нефилологических направлениях) посредством использования современных сатирических текстов* ..... 74 77

**To'xtamurodov Azizbek Azimjon o'g'li**

*Talabalar xizmatlarini tashkil etishda registrator ofisining ergonomik boshqaruv modeli* ..... 78 81

**Novshadbekova Dilnura Zafarbekj qizi**

*Tarbiya fanini integrativ yondashuv asosida o'qitish orqali talabalarning kreativ va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish* ..... 82 87

**Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna**

*Oliy ta'lim tizimida talabalar o'quv faoliyatini pedagogik improvizatsiya asosida rivojlantirishning determinantlari va strategiyalari* ..... 88 91

**Muqumjonova (Sodiqova) Moxinur Farxodjon qizi**

*Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarida kreativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar* ..... 92 94

**Kodirov Muxammadxusanbek Abdizohid o'g'li**

*Oliy ta'lim muassasalarida basketbol mashg'ulotlarini tashkil etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish* ..... 95 100

**Shomurotov Asqar Abdullayevich**

*Talabalarning jismoniy tarbiya jarayonida aylanma mashg'ulotlardan foydalanishning samarali usullari* ..... 101 105

**Ismonov Xurshidbek Baxtiyorovich, Toshpulatova Maftuna Sherali qizi**

*Geomertik shakllar asosida Natyurmort kompozitsiyasini qurish* ..... 106 109

**IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR**

**Fozilov Botirjon Zakirovich**

*Global ta'lim migratsiyasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil va strategik rivojlanish tendensiyalari* ..... 110 116

**Abduraximova Shaxnoza Raxmonjonovna**

*O'quv faoliyatida stressni yengishning samarali psixologik texnikalari* ..... 117 122

**Erkinboyeva Zilola Fayzillo qizi**

*Mahmudxo'ja behbudiyning jadidchilik g'oyalari va ma'rifiy islohotchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari* ..... 123 125

**Eshonqulova Jumagul Abdumajidovna**

*Ijtimoiy tarmoqlarda ayol qiyofasi masalasi orqali talabalarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari* ..... 126 129

**Mamajonov Ulug'bek Maxammattolibovich**

*Musiqqa san'ati va inson qalbining uyg'unligi* ..... 130 133

**Ahmadjonova Shahnozaxon Yارقinovna**

*Talabalar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olish* ..... 134 136

**Keldiyeva Shaxnozaxon Shuxratovna**

*Bo'lajak tarixchi talabalarni tayyorlashda reflektiv yondashuv: jadid maktablarining ilmiy-metodik merosidan foydalanish imkoniyatlari* ..... 137 140

